

MUHAMMAD IBN ISO TERMIZIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Aminjonov Asadullojon Qudratillo o'g'li
“Hadis ilmi maktabi” o'qituvchisi

Annotatsiya

Aytish joizki, Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam hadislarini to‘plash, ularni tartibga solib qimmatli asarlar yaratishda Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissasi benihoya katta bo‘lgan. Shular ichida Termiziy yoshligidan o‘ta tirishqoq, idrokli va zakovatli bo‘lganligi bois o‘z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o‘ta qiziqishi tufayli o‘sha davrning ko‘pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan.

Kalit so‘zlari: Payg‘ambar, hadis, tarix, olti sahih kitob.

Ma’lumki, jahon ilm-fani va madaniyatining ravnaqiga Movarounnahr va Xurosondan chiqqan olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar.

Tarixda shunday ulug‘ mutafakkir bobolarimiz yashab o‘tganlarki, ular o‘z davrlari uchungina emas, balki kelgusi avlodlar uchun, kelajak zamon va davrlar uchun ham ma’naviy kuch-quvvat manbasi bulgan bebaxo meros qoldirganlar.

Yangi O‘zbekistonning oxirgi yillarida davom etayotgan, biz o‘z o‘tmishimizni yangitdan anglayotgan holda mamlakatimizning bundan keyingi taraqqiyotida uning o‘ziga xos yo‘lini belgilayotgan davrda, bizda ma’naviy merosimizga xolisona va haqqoniy nazar bilan yondoshish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keldi.

Aytish joizki, Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam hadislarini to‘plash, ularni tartibga solib qimmatli asarlar yaratishda Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissasi benihoya katta bo‘lgan. Chunonchi, hadis ilmida bu zaminning olti buyuk farzandi – olti mashhur muhaddis yaratib ketgan olti asar islom dunyosida “Kutub as-sitta” - “Oltita kitob” yoki “Sihoh sitta” - “olti sahih kitob” nomi bilan ataladi va ular eng ishonchli shoh asarlar hisoblanadi.

Mana shu buyuk asarlarning mualliflaridan biri, hadis ilmining buyuk darg‘asi Imom Termiziy hisoblanadilar. U zotning ilmiy faoliyati hamda ilmiy merosini o‘rganish, shox asarlarini o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Abu Iso Termiziyning to‘liq ismlari Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug‘iy Termiziy bo‘lib, hijriy 209 (milodiy 824) yili Termiz yaqinidagi, hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan Bug‘ qishlog‘ida o‘rta hol bir oilada tavallud topgan.

Termiziy yoshligidan o‘ta tirishqoq, idrokli va zakovatli bo‘lganligi bois o‘z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o‘ta qiziqishi tufayli o‘sha davrning ko‘pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan.

Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o‘rgangan, qo‘shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o‘rnatilishiga munosib hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Yoshligidan ilm-fanga tashna Termiziy 850-yildan, ya’ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijozda – Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko‘plab muhaddis, ulamolar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan ta’lim oladi, qizg‘in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi.

Uzoq yillar davom etgan safarlari chog‘ida Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki qiroat ilmi, al-bayon, fiqh va tarix kabi fanning boshqa sohalari hamda ko‘plab ustozlardan saboq oladi.

Shu bilan bir qatorda Termiziy Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam hadislarini to‘plashga alohida e’tibor bilan qaraydi.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imom Termiziy o‘z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Uning ustozlaridan Imom Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa’id, Is’hoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘iylon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibi Hajar Marvaziy, Ahmad ibn Muniy’, Muhammad ibn Musanno, Sufyon ibn Vaqiy’ va qator taniqli muhaddislarni ko‘rsatish mumkin.

Imom Termiziy o‘z ijodiy faoliyati davrida o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, “Al-Jomi” asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Al-Jomi’ al-kabir” (“Katta to‘plam”), “Sahih Termiziy”, “Sunan Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”) nomlari bilan ham yuritiladi¹.

Muallifning yirik asarlaridan yana biri «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg‘ambar alayhissalomning siyratlari»)dir. Bu asar “Ash-shamoil muhammadiyya”, «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam» nomlari bilan ham ataladi. “Kitob at-ta’rix”, «Kitob al-ilal as-sag‘iyr va al-ilal al-kabiyr», “Kitob az-zuhd”, “Kitob al-asmo val-kuna”, “Al-ilal fi-l-hadis”, “Risola fi-l-xilof va-l-jadal”, “Asmo as-sahoba”² shular jumlasidandir.

Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida “al-Jomi’ as-sahih” («Ishonchli to‘plam») eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, “al-Jomi’ al-kabiyr”, (“Katta to‘plam”), “Sahih Termiziy”, «Sunan Termiziy» (“Termiziy sunnatlari”) kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar Asqaloniy (vaf. 852/1448)ning yozishicha, Termiziy ushbu asarini 270 hijriy

¹ Ibn Kasiyr. Al-Boisu-l-hasiys. – B. 22.

² Ibn Hajar Asqaloniy. Tahziybu-t-tahziyb. J. 9. – B. 389.

(884 milodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Shular ichida “Sunani Termiziy” asariga ko‘plab shahlar yozilgan. Ularning ba’zilar quyidagilar:

1. «A’rizat al-Ahvaziy fi sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy» nomli sharhning muallifi al-Hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh al-Ashbily bo‘lib u Ibn al-Arabiy al-Molikiy (vafoti 1151-yil) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Asarning qadimiy qulyozma nusxasi Madinai Munavvaradagi kutubxonada saqlanadi, boshqa bir qulyozma nusxasi alloma ash-Shayx Rafiy’addin Buxoriyning kutubxonasida mavjud. Asar Qohirada ham nashr etilgan bo‘lib, lekin bu nashrda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan.

2. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy” — Hofiz Abdul-Fath Muhammad ibn Sayyid an-Nos al-Yamariy ash-Shofi’y (vafoti 1333-yil) uning muallifidir. Muallif asarning uchdan bir qismiga yetgan. Garchand u o‘n jilddan iborat sharh bitgan bo‘lsa-da, uning oxiriga yetkazish uchun fursat topmagan. Sharhning bunchalik cho‘zilib ketishligining boisi shundaki, muallif o‘z asari doirasini faqat hadis faniga aloqador masalalar bilan cheklab qolmay, balki unga boshqa fanlarga doir ma’lumotlarni ham kiritgan.

Alloma al-Chalabiy shunday degan: «Agar muallif o‘z sharhida faqat hadis fani bilan chegaralanganda edi uni tamomiga yetkazar edi, lekin u (muallif) Allohga hamd aytamizki, qimmatli ish qilgan. So‘ngra undan qolganlarini oxiriga yetkazgan al-Hofiz Zaynuddin Abdurahim ibn Husayn al-Iroqiy bo‘lib, «al-Alfiya»³ning muallifi (vafoti 1403-yil)dir. Bu kitobning to‘liq bir nusxasi Madinai Munavvaradagi kutubxonada saqlanadi.

3. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy” nomli sharh Zaynuddin Abdurrahmon ibn Ahmad ibn an-Nabiy al-Hanbaliy (vafot yili noma’lum)ning qalamiga mansub bo‘lib, yigirma jildda tugallangan, lekin qandaydir bir fitna vaqtida yonib ketgan⁴.

4. “Al-A’rf ash-shaziy a’lo Jomi’ Termiziy”ning muallifi Sirojiddin Umar ibn Raslan al-Balqiyiy ash-Shofi’iy (vafoti 1402-yil). Ushbu sharh Imom Termiziy asarining bir qismiga bag‘ishlanib, sharh oxirigacha yetkazilmagan⁵.

5. “Sharh az-zavoid li-t-Termiziy”ning muallifi alloma Sirojiddin Umar ibn Ali al-Mulaqqin (vafoti 1401-yil). Bu asar Imom Buxoriy va Imom Muslimning “Sahiyh” va Abu Dovud asaridan ortiqcha Termiziyda keltirilgan hadislarning sharhidir⁶.

6. “Al-Lubb ul-albob fiy mo yaqulu Termiziy fi-l-bob” nomli sharhning

³ Hoji Xalifa. Kashfu-z-zunun. J. 1. – B. 375.

⁴ Muborakfuriy, Siyratu-l-imom al-Buxoriy. – B. 376.

⁵ Bufoliy. Al-Hutta. – B.243.

⁶ Saxoviy. Az-Zav’u-l-lomi’. J. 6. – B.102.

muallifi Shayx ul-islom al-Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy⁷ (vafoti 1448-yil) bo‘lib, bir jildidan iborat bu sharhning qulyozmasi Madinai Munavvaradagi kutubxonada saqlanadi. Bu juda ham muhim asar bo‘lib, Imom Termiziy fihiy masalalarga doir»... haqidagi bobda» zikr qilingan hadislarni bayon qilishga bag‘ishlangan. Ushbu hadislar jarh (illatlari) va ularning tuzatish (ta’diyl)lari bilan birgalikda mufassal holda bayon qilingan.

7. “Qut al-mug‘taziy” nomli asar alloma Jaloluddin as-Suyutiyning (vafoti 1505-yil) qalamiga mansub. Bu haqda Hoji Xalifaning “Kashf az-zunun” asarida (1-jild, 375 bet) hikoya qilinadi. Jaloluddin as-Suyutiy ushbu sharhida Termiziyning “Sunan” asarini yuqori baholab uni quyidagicha ta’riflaydi: “Imom Termiziyning «Sunan» asari boblarga bo‘lingan. Bu ham bir ilm. Asardagi fiqh — xuquqshunoslik masalalari ham bir ilm. Sahiyh bilan saqimni ajratuvchi ilalni aytishlari ham bir ilm. Ularning o‘rtasidagi hadis turlarini zikr etish ham bir ilm. Roviylarning nomlari va laqablari ham alohida bir ilm. Jarh va ta’diyl, Rasulullohni topgan va topmagan roviylarni belgilash isnodli rivoyat. Unda keltirganlarning hammasi ijmoliy ilm turlaridir. Ammo tafsiliysi juda ham ko‘p. Xullas, bu asarning qimmatli jihatlari majmualar to‘plamidir».

8. “Naf’ Qut al-mug‘taziy”ning muallifi alloma as-Sayyid Ali ibn Sulaymon ad-Dumantiy al-Bajma’viy al-Mag‘ribiy al-Molikiy ash-Shoziliy (vafoti 1877-yil)⁸.

“Jomi’ Termiziy” nusxasining hoshiyasida chop etilgan. Muallif alloma Jaloluddin as-Suyutiyning oldin zikri o‘tgan sharhini muxtasar holga keltirib, kitob aslining foydali tomonlariga bir qadar xalal yetkazganki, kitobning nomi “Naf’ Qut al-Mug‘taziy” iborasi ma’nosini yo‘qotgan. Bu asar Qohira va Dehlida chop etilgan.

9. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy”ning muallifi al-Hofiz Zaynuddin Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Rajab al-Hanbaliy (vafoti 1587-yil). Ushbu sharh haqida manbalarda juda kam ma’lumot keltirilgan.

10. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy” ham Shayx ul-islom al-Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniyning (vafoti 1148-yil) qalamiga mansub bo‘lib, muallif uni “Sahiyh Buxoriy”ga yozgan yirik sharhi «Fath al-boriy»da zikr qilgan⁹.

11. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy” ash-Shayx Abu-l-Hasan ibn Abdulhodiy as-sanadiy al-Madiniy (vafoti 1728-yil) bitgan bu sharh juda go‘zal bo‘lib, muallif uni al-Haram ash-Sharifda (Makkada) ta’lif etgan. Asar qirq qism (juz’)dan iborat.

⁷ Shokir Mahmud Abdulmun’im. Ibn Hajar va dirosatuhu. – B.395.

⁸ Qomusu “al-A’om”. J. 5. – B. 104.

⁹ Fathu-l-boriy. J. 1. – B. 230.

12. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy”ning muallifi alloma Abu at-Tayyib (Muhammad ibn at-Tayyib) as-Sanadiy (al-Madiniy), vafoti 1698-yil), bu sharh arab tilida “bi qavlihi” “vaqavluhu” deyilib, uning bir qismi chop ham etilgan.

13. “Sharh al-Jomi’ li-t-Termiziy”ning muallifi alloma Siroj Ahmad as-Sarhandiy bo‘lib, fors tilida bitilgan bu sharhning ayrim qismlari nashr ham etilgan.

